

O'ZBEKISTONDA OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Mannopova Muazzam Sultonbekovna

Farg'ona davlat universiteti, Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrası v.b.dotsenti

e-mail: muazzam.mannopova@gmail.com.

***Annotatsiya**– Ushbu maqolada oilaviy korxonalarining milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushini oshirish hamda aholi bandligini ta'minlashdagi iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari, uning xorijiy tajribasi va O'zbekiston iqtisodiyotidagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, sohani yanada rivojlantirish, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** oilaviy korxonalar, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, aholi bandligi, innovatsiyalar, investitsiya, moliyaviy barqarorlik.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror o'sishni ta'minlash, bozorlarni raqobatbardosh tovar va xizmatlar bilan to'ldirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari orasida esa oilaviy korxonalar o'zining ichki moslashuvchanligi, inqirozlarga chidamliligi va an'analarga sodiqligi bilan alohida strategik ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda oilaviy korxonalar muhim o'rin egallamoqda. Oilaviy tadbirkorlik ko'plab mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi, chunki u jamiyatda barqaror ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi va mahalliy iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shadi. Oilaviy tadbirkorlikda oila a'zolari tomonidan birgalikda boshqariladigan va faoliyati oilaning barcha yoki ko'pchilik a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan kichik biznes tushuniladi.

Oilaviy korxonalar - bu bir oila a'zolari tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lib, u qonuniy asosda ro'yxatdan o'tgan va o'z faoliyatini yurituvchi iqtisodiy birlik hisoblanadi. Oila a'zolari korxonaning egasi, ishchisi va boshqaruvchisi bo'lishi mumkin. Bu turdagi korxonalar nafaqat iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadi, balki oila a'zolarining daromad manbaini yaratib, ular o'rtasidagi birdamlikni ham mustahkamlaydi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish orqali aholi farovonligini yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash

davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda "Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar oilaviy biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish va kambagʻallikni qisqartirishga xizmat qilmoqda. Biroq, globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida oilaviy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ularni mikro-biznes darajasidan yirikroq iqtisodiy subyektlarga aylantirish boʻyicha nazariy va amaliy muammolar hanz saqlanib qolmoqda va shuning uchun ushbu mavzu dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy tadbirkorlik boʻyicha ilmiy tadqiqotlar koʻplab olimlar tomonidan olib borilgan boʻlib, bu yoʻnalishda turli iqtisodiy nazariyalar va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu boʻlimda oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini yorituvchi ilmiy manbalar tahlil qilinadi. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va uning jamiyat rivojlanishidagi oʻrni masalalari koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Xususan, Shumpeter (1934) tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida koʻrib chiqib, oilaviy biznesning innovatsiyalarni joriy etishdagi rolini taʼkidlagan. Boshqa tomondan, Bekker (1981) oʻzining "Ijtimoiy kapital va oilaviy iqtisodiyot" konsepsiyasida oilaviy biznesning resurslardan samarali foydalanish va bandlikni taʼminlashdagi ahamiyatini yoritgan. Oʻzbekistonlik tadqiqotchilar orasida N. Xudoyberganov (2019) oilaviy tadbirkorlikni kichik va oʻrta biznesning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga taʼsirini tahlil qilgan.

I. Bekmurodov (2020) Oʻzbekiston sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini oʻrgandi. Uning fikricha, oilaviy korxonalar qishloq joylarida bandlikni taʼminlash va aholi daromadlarini oshirishda eng samarali vosita ekanligi asoslandi. Shuningdek, A. Qoʻchqarov (2021) Oʻzbekistonda oilaviy biznesning huquqiy asoslari va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini oʻrganib, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash boʻyicha tavsiyalar bergan. Oilaviy tadbirkorlikning aholi turmush sifatiga taʼsiri koʻplab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda oʻrganilgan.

Xususan, Astrachan va Shanker (2003) oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdagi oʻrni haqida yozib, oilaviy biznesning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, oilaviy korxonalar uzoq muddatli istiqbolga yoʻnaltirilgan boʻlib, iqtisodiy inqiroz sharoitida ham moslashuvchanlik va barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatiga ega.

Oʻzbekistonda olib borilgan tadqiqotlar orasida R. Karimov (2020) qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikning aholining daromadlari va ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga taʼsirini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, oilaviy tadbirkorlik orqali bandlikning oshishi kambagʻallik darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Koʻplab rivojlangan mamlakatlar oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qoʻllab-quvvatlamogda. Xitoy, Germaniya va AQSh

tajribalari oilaviy biznesning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratishning ahamiyatini ko'rsatadi. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani inobatga olgan holda, biznes muhitini yaxshilash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozimdir. Ilmiy manbalar asosida oilaviy biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng yoritilgan. Shu bois maqolada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha konkret taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

METODOLOGIYA

Iqtisodiyot soha va tarmoqlarini, xususan oilaviy korxonalar faoliyatining rivojlantirish tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini o'rganishdagi iqtisodiyot jarayonlarni kuzatish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintezlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz Prezidentining rahnamoligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, soha subyektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun esa O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi qonuni bu borada muhim dasturilamal bo'lmoqda. Oilaviy tadbirkorlik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mustahkam huquqiy asosga ega, ya'ni 2012-yil 26-aprelda qabul qilingan “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni, 2021- yil 27- martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5041-sonli qarori bu sohaning huquqiy maqomini belgilab berdi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mazkur qonun va qaror asosida oilaviy korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkaziladi va yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga yo'naltirilgan dasturlar doirasida so'nggi 3 yil davomida 600 mingdan ziyod aholi va tadbirkorlik subyektlariga 15 trillion so'mdan ortiq miqdorda imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha huquqiy tartiblar takomillashmoqda, oilaviy korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilik, moliyaviy imkoniyatlar, davlat tomonidan imtiyozlar, subsidiya, kreditlar, grantlar kabi vositalar kengaymoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida oilaviy tadbirkorlikning salohiyati o'ziga xos rivojlanishga ega bo'lmoqda. 2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami 37 816 ta oilaviy korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu ko'rsatkich yil boshidan buyon 1 551 taga oshganini anglatadi. Oilaviy korxonalar soni hududlar bo'yicha o'rganilganda Samarqand viloyati – 7 768 ta, Surxondaryo viloyati – 4 033 ta, Farg'ona viloyati – 4 503 ta, Xorazm viloyati – 4 656 ta, Toshkent viloyati – 3 639 ta, Toshkent shahri – 3 009 ta, Qashqadaryo viloyati – 3 395 ta, Navoiy viloyati – 3 207 ta, Andijon viloyati – 1 514 ta, Jizzax viloyati – 1 420 ta, Namangan viloyati – 1 005 ta, Qoraqalpog'iston

Respublikasi – 2 056 ta, Sirdaryo viloyati – 292 tani tashkil etdi. Asosan Samarqand, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida oilaviy korxonalar soni yuqori bo‘lib, bu hududlarda tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Oilaviy korxonalar ko‘proq hududlarga tarqalib bormoqda. Samarqand, Surxondaryo, Farg‘ona kabi oilaviy korxonalar sonining ko‘proq ortganligi, bu, o‘z navbatida, sharoitlar ya‘ni, yo‘l, elektr, moliyaviy infratuzilma, davlat dasturlari, aholining iqtisodiy faolligi kabi omillarga bog‘liq bo‘lmoqda.

Oilaviy korxonalarining tarmoqlar bo‘yicha o‘ziga xos taqsimotga ega bo‘lmoqda, bunda savdo sohasida 15 125 ta (umumiy sonning 40% dan ortig‘i to‘g‘ri kelmoqda), sanoatda 8 565 ta, yashash va ovqatlanish xizmatlarida 7 244 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 2 596 ta, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 652 ta, tashish va saqlashda 339 ta, qurilishda 299 ta, axborot va aloqa sohasida 244 ta va boshqa sohalar – 2 752 ta oilaviy korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Oilaviy korxonalar O‘zbekiston iqtisodiy tizimida kichik va o‘rta tadbirkorlik segmentining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra oilaviy korxonalar respublika bo‘yicha YAIMning 20–25 foizini, bandlikning esa 35–40 foizini ta‘minlaydi. Ushbu ma‘lumotlar oila korxonalarining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni nihoyatda muhim ekanini ko‘rsatadi. Oilaviy tadbirkorlik kichik va o‘rta tadbirkorlik (KO‘T) sektorining asosiy drayveri sifatida shakllangan bo‘lib, u iqtisodiy faollikni oshirish, hududlar barqaror rivojlanishi va aholining turmush darajasini yaxshilashda bevosita rol o‘ynaydi. Ushbu sektorning iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi ayniqsa YAIM va bandlikdagi ulushlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Oila korxonalarining YAIMdagi 20–25 foizlik ulushi ularning makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi muhim o‘rni tasdiqlaydi. Bu ulush, avvalo, oilaviy biznesning ishlab chiqarish va xizmatlar hajmidagi barqaror o‘shishga muntazam hissa qo‘shayotganidan dalolat beradi. Bunday korxonalar mahalliy resurslardan oqilona va samarali foydalanishi, qiymat zanjirida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgani sababli milliy iqtisodiyotning ichki barqarorligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik kichik biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytiradi. Ya‘ni iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasida risklar kamayadi, yangi bozor segmentlari shakllanadi va mahalliy ishlab chiqarish ekotizimi kengayadi. Oila korxonalarining YAIMdagi yuqori ulushi ularning faolligi an‘anaviy yo‘nalishlar bilan cheklanmay, xizmat ko‘rsatish, savdo, turizm, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik kabi tarmoqlarda ham izchil kengayayotganini anglatadi.

Natijada, oilaviy tadbirkorlik nafaqat mikro darajadagi iqtisodiy faoliyatni jonlantiradi, balki milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiruvchi strategik omilga aylanadi. Oila korxonalarini bandlik bozorining eng muhim segmentlaridan biri bo‘lib, 35–40 foizlik ulush bilan mehnat bozorining asosiy tayanch guruhiga aylangan. Bu holat bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, oila korxonalarini kichik va moslashuvchan mehnat bozorini yaratadi. Ular yangi ish o‘rinlari yaratish orqali mahalliy aholi bandligini ta‘minlaydi, ayollar va yoshlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini

kengaytiradi.

Ikkinchidan, oilaviy tadbirkorlik hududlar iqtisodiy faolligini oshiradi. Aksariyat oila korxonalari qishloq va chekka hududlarda faoliyat yuritadi, bu esa hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, oilaviy korxonalar norasmiy mehnatni qisqartiradi. Ularning rasmiy sektorga kirishi qonuniy mehnat sharoitlarini yaxshilaydi, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kengaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu esa oilaviy tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini tasdiqlaydi. - Oilaviy korxonalar hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Hududlar kesimida o'tkazilgan solishtirma tahlil natijalariga ko'ra oilaviy korxonalar soni yuqori bo'lgan hududlarda bandlik darajasi va o'rtacha daromad darajasi ham sezilarli darajada yuqoriroq. Shu bilan birga, oilaviy korxonalar mahalliy resurslarni samarali ishlatib, bozor barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra: “Har bir oila biznes bilan shug'ullanishi lozim” – bu tamoyil oilaviy korxonalarining iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yuksaltiradi va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganini ko'rsatadi. Oilaviy korxonalar bandlik yaratishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Anketalar va intervyular asosida olingan ma'lumotlarga ko'ra, har bir oilaviy korxonada o'rtacha 5–10 ish o'rnini ta'minlaydi. Bu esa bandlikning mahalliy darajada oshishiga, kambag'allikni kamaytirishga va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, oilaviy korxonalarda ish o'rinlari ko'pincha uzoq muddatli bo'lib, xodimlar bilan oila sifatida aloqalar rivojlangan. Bu esa ishchi motivatsiyasini oshiradi va mehnat unumdorligini yaxshilaydi. - Oilaviy korxonalar uzoq muddatli barqarorlikni saqlash uchun avlodlar almashinuvi mexanizmlarini samarali qo'llashlari lozim. O'zbekiston oilaviy korxonalarida avlodlar almashinuvi jarayoni izchil shakllangan mexanizmlar asosida amalga oshadi.

Avvalo, bu jarayon rejalashtirilgan merosiy uzluksizlik tamoyiliga tayanadi, ya'ni ota-onalar faoliyat yo'nalishi, strategik maqsadlar va moliyaviy boshqaruv bilan bog'liq asosiy vazifalarni bosqichma-bosqich farzandlarga topshiradi. Shu bilan birga, almashinuvning muhim qismi sifatida kadrlarni tayyorlash va boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi: yosh avlod korxonaning kundalik faoliyati, boshqaruv jarayoni, mijozlar bilan ishlash, innovatsion yondashuvlar va bozor talablari bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydi.

Nihoyat, avlodlar o'rtasidagi ijrochi va maslahat beruvchi rollar taqsimoti oilaviy korxonalarda qaror qabul qilish tizimini yanada mukammallashtiradi — katta avlod ko'proq strategik maslahat beruvchi rolni bajararkan, yoshlar amaliy boshqaruv vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Shu tarzda avlodlar almashinuvi oilaviy biznesning barqarorligini, innovatsion salohiyatini va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Oilaviy tadbirkorlikning asosiy xususiyatlari: a) egasi va boshqaruvchisi oila a'zosi — biznes oilaviy a'zolar tomonidan yuritiladi; b) ishchilar ko'p hollarda

oilaning o'z a'zolari bo'ladi; c) oila a'zolari o'rtasida mas'uliyat va foyda taqsimoti mavjud bo'ladi; d) ko'pincha kichik biznes ko'lami va mahalliy bozor uchun xizmat ko'rsatish; oilaviy qadriyatlar va an'analar biznes faoliyatiga ta'sir qiladi.

Oilaviy korxonalarda rahbarlikning avloddan-avlodga o'tishi, mulk va boshqaruv bo'yicha mas'uliyatlarning tarqatilishi kabi jarayonlar muhim ahamiyatga egadir. Ko'plab korxonalarda yosh avlod vakillarining ishtiroki, tashqi boshqaruv elementlari va professional maslahat xizmatlaridan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Shu bilan birga global va mahalliy iqtisodiy sharoitlarda noaniqliklar, inflyatsiya, ta'minot zanjiridagi buzilishlar kabi omillar korxonalarining biznes modelini ehtiyotkorlik bilan tuzishga, asosiy faoliyatni barqarorlashtirishga intilishiga olib kelmoqda.

Oilaviy korxonalar o'ziga xos afzalliklari bilan ajralib turadi ya'ni, ularning moslashuvchanligi qarorlar tez qabul qilinishiga olib keladi; xarajatlar kam, tashqi aralashuvning kam bo'lishi; ishonchli muhit – oila a'zolari o'rtasida ishonch mavjud bo'lganligi tufayli mehnat samaradorligi yuqori bo'lishi, mehnat bandligi – oila a'zolarini ish bilan ta'minlanishi, ayniqsa qishloq joylarda bu juda dolzarb ahamiyatga egaligi, an'anaviy hunarmandchilikni davom ettirish orqali kasbdan-kasbga o'tib kelayotgan an'anaviy san'at va hunarlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ushbu tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakatimiz iqtisodiyoti muhim o'ni va ahamiyatini belgilab beradi.

Oilaviy korxonalar faoliyatida muammolar ham mavjud bo'lib, ushbu muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- oilaviy korxonalariga texnologik yordam (raqamli savdo, agrotexnika, avtomatlashtirish) ko'proq taklif qilinishi;
- imtiyozli kredit va subsidiya yo'llarini kengaytirish, ayniqsa kichik korxonalar uchun;
- ESG prinsiplari bo'yicha amaliy qo'llanmalarni ishlab chiqish va tatbiq etish;
- avlodlar almashuvi jarayonlarini rejalashtirish va rahbarlik malakalarini oshirish kurslari;
- bozorlarga chiqish, eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirish, marketing va brend yaratishga e'tibor qilish, Texnologik bilim va asbob-uskunalarining yetishmasligini kiritish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda Imtiyozli kreditlar va subsidiya dasturlarini kengaytirish, oilaviy biznes sub'ektlariga soliq yengilliklarini berish, kasb-hunar va biznes ta'limini rivojlantirish, mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga chiqarishda yordam ko'rsatish kabi chora-tadbirlarning qo'llanilishi ushbu muammolarni bartaraf etilishiga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari oila korxonalarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini chuqur tahlil qilish imkonini berdi va ushbu sektorning barqaror rivojlanish jarayonlarida tutgan strategik ahamiyatini tasdiqladi. Avvalo, oilaviy korxonalar iqtisodiy tizimda barqaror segment sifatida faoliyat yuritib, ishlab chiqarish va

xizmat ko‘rsatish hajmlarining uzluksiz o‘shishiga sezilarli hissa qo‘shadi hamda milliy iqtisodiyotning mustahkam rivojlanishiga xizmat qiladi. Boshqaruvning oilaviy xususiyatlari, mulkchilikning merosiy uzluksizligi va avlodlar almashinuvi mexanizmlarining mavjudligi korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlovchi asosiy tashkiliy omillar bo‘lib, ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, oilaviy korxonalar hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash orqali mahalliy iqtisodiy tizimning dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat, diversifikatsiya strategiyalari hamda uzoq muddatli rejalashtirish jarayonlari ularning iqtisodiy samaradorligi va barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotdan olingan natijalar oilaviy korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning iqtisodiy tizimdagi rolini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotda barqaror o‘shishni ta‘minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi. Mazkur tavsiyalar oilaviy tadbirkorlikning institutsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, boshqaruv madaniyatini modernizatsiya qilish, innovatsion salohiyatni kengaytirish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 27.03.2021 yildagi PQ-5041-sonli Qarori.
2. L. Yaxshiboyeva. Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni mahallalarda yuritilish holati. //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024 yil 11-son.
3. M.T.Abdusalimov. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari. // Journal of New Century Innovations, 43(2), 175–177. (2024).
4. G.M.Shadiyeva, Z.R.Rustamova. Oilaviy korxonalarining iqtisodiy tizimdagi o‘rni. //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2025-yil, 12-son.
5. M.S.Mannopova. Oilaviy korxonalarining kichik biznesni rivojlantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlari.// Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishning dolzarb masalalarini mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Farg‘ona, 10-oktabr 2025-yil .
6. S.A.Abduraximova, J.G‘Mamadjanov. Oilaviy tadbirkorlikning aholi turmush sifatini oshirishdagi ahamiyati.// Yangi o‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. Volume 2 Issue 6. 21.03.2025 yil.
7. N. Karimova .O‘zbekiston oilaviy biznesining iqtisodiy tizimdagi roli va barqarorligi. // Toshkent. Iqtisodiyot va Moliyaviy Tadqiqotlar Markazi. (2021).
8. Xasanov I.M. Iqtisodiy taraqqiyot va oilaviy tadbirkorlik. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2021 yil, №2-son. 68-69-b.